

SamDVMCHBU 60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi 2 bosqich 201-202 guruh talabalari uchun "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan katta ilmiy xodim B.Hakimovning tomonidan yozilgan "Hayvonlar patofiziologiyasi fani, maqsadi va vazifalari. Nozologiya" mavzusidagi ochiq ma'ruza mashg'uloti matniga

T A Q R I Z

"60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan "Hayvonlar patofiziologiyasi fani, maqsadi va vazifalari. Nozologiya" mavzusida tayyorlangan ma'ruza darsining ishlanmasi: oquv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi, texnologik xaritasi, tayanch iboralar, ma'ruza matni, tavsiya etiyotgan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan.

Ma'ruza "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan "60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun fan va ishchi (syllabus) dastur asosida rovon o'zbek tilida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita rejasiga mos yoritilgan bo'lib, unda qo'llanilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralar, nazorat va test savollari mavjud. Ushbu ma'ruza matnida kasalliklar, ularning tasnifi haqidagi umumiy tushunchalar va oqibatlari atroflicha yoritilgan.

Ma'ruza matnida patofiziologiya fanini o'rganishda eksperimentning ahamiyati, kasalliklarni o'rganish va unga bildirilgan fikrlar, kasalliklarga turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, sog'lomlik va kasallik haqidagi umumiy tushunchalar kasalliklarni ta'sirotda kuchiga bog'liq ravishda organizmda yuzaga keladigan o'zgarishlar batafsil yoritilgan.

Ma'ruza talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka paydo qilib, bo'lajak mutaxassislarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.


Muallif maruzani to'lig'icha yoritib, hayvonlarda kasallik klassifikatsiyasini, oqibati va asoratlarni to'lig'icha sodda va ravon tilda yozgan bo'lib, talaba fanning maqsad va vazifalarini o'qiganda u haqida yengil tushuncha hosil qiladi.

Muallif o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasining kirish qismida mavzu, uning maqsadi, oquv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar ma'lum qilishni, asosiy qismida talabalar e'tiborini jalb etish uchun pedagogik texnologiyalar va bilim darajalarini aniqlash uchun nazorat savollari, test savollari keltirilgan.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan. U o'zining mazmun va mohiyati, qo'yilgan masalalarning yoritilishi bilan dars mavzusiga mos keladi. Mazkur ishlanmani dars jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Sam. DTU "Patologik fiziologiya
kafedrasi mudirasi, t.f.d. professor**

Samieva G.U



**SamDVMCHBU 60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi
bakalavriat ta'lim yo'nalishi 2 bosqich 201-202 guruh talabalari uchun "Hayvonlar
patofiziologiyasi" fanidan katta ilmiy xodim B.Hakimov tomonidan yozilgan
"Hayvonlar patofiziologiyasi fani, maqsadi va vazifalari. Nozologiya" mavzusidagi
ochiq ma'ruza mashg'uloti matniga**

T A Q R I Z

Qishloq xo'jaligini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida tayyorlanayotgan veterinariya vrachlari "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan kasal hayvonlar organizmida kechayotgan patologik jarayonlar, ularni qonuniyatlarini o'zlashtirib, organizmda kechadigan patologik jarayonlarni bilish va chorvachilikda hayvonlar podasini sog'lomlashtirish, ulardan olinadigan mahsulotlarni sifat va samaradorligini oshirishda ilmiy hamda amaliy ko'nikmalarni yaratishi zarur.

Ma'ruza "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan "60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga fan va ishchi (syllabus) dasturiga mos o'zbek tilida yozilgan. Mavzu tuzilgan texnologik xarita rejasiga mos yoritilib, unda qo'llanilgan asosiy va qoshimcha adabiyotlar ro'yxati, tayanch iboralar, nazorat va test savollari mavjud. Ushbu ma'ruza matnida fanning maqsad va vazifalari hamda nozologiya haqida umumiy tushunchalar atroflicha yoritilgan.

Ma'ruza matnida organizm evolutsion rivojlanishining turli davr va bosqichlarida kasallik kelib chiqishi haqidagi tushunchalar, kasalliklar tasnifi, oqibatlari haqida batafsil tushunchalar keltirilgan. Hayvonlar patofiziologiyasi fanining maqsadi va vazifalarida fanning veterinariya mutaxassislarini tayyorlanishida eksperimentlarga asoslangan holatlar misollar asosida yoritilgan.

Ma'ruza talabalarda mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka paydo qilib, bo'lajak mutaxassislarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Muallif ma'ruzani to'lig'icha yoritib, hayvonlar patofiziologisi fanida eksperimentning ahamiyatini to'lig'icha sodda va ravon tilda yozgan bo'lib, o'qiganda yengil tushuncha hosil qiladi.

Ma'ruza mavjud ilm-fanning zamonaviy innovatsion texnologiyalar va eksperimental laboratoriya tajribalari natijalari bilan boyitilgan, zamon, davr va fan taraqqiyotidan kelib chiqqan holda hayvonlarda bo'ladigan patologik jarayonlarni o'rganishda qollaniladigan aniqlash usullari keltirilgan.

Ushbu "60840300 – Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "Hayvonlar patofiziologiyasi" fanidan v.f.n. B.Xakimov tomonidan yozilgan "Hayvonlar patofiziologiyasi fani, maqsadi va vazifalari. Nozologiya" mavzusidagi ma'ruzasini ijobiy baholayman hamda dars jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**SamDVMCHBU "Hayvonlar fiziologiyasi
biokimyosi va patologik fiziologiya"
kafedrasi, professor v.b, v.f.n**



R.F.Ro'ziqulov

